



FUQAROLIK HUQUQIDA DA'VO TUSHUNCHASI

Xudaynazarova Uldaulet Muratovna
Berdaq nomidagi Qoraqolpoq davlat universiteti
Yuridika fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada odil sudlov sohasida olib borilayotgan islohotlar, fuqarolarning sud orqali himoya qilish huquqlarining asoslari, sudda da'vo tartibida ko'riladigan ishlar, davo tushunchasi, elementlari va turlari, da'voga bo'lgan huquq va da'vo qo'zg'atish huquqi haqida asosiy tushunchalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Da'vo, da'vo elementlari, da'vo predmeti, da'vo asosi, da'vo turlari, undirish to'g'risidagi da'vo, tan olish to'g'risidagi da'vo.

Sud har qanday holatda fuqarolarning huquqlarini himoya qiluvchi, adolatli hukm chiqaruvchi tizim darajasiga yetgandagina mamlakat taraqqiyoti yoki demokratik jamiyat qurish haqida gapirish o'rinli bo'ladi. Oxirgi besh yil ichida sud-huquq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida huquqlarini himoya qiluvchi, adolatli hukm chiqaruvchi tizim darajasiga yetgandagina mamlakat taraqqiyoti yoki demokratik jamiyat qurish haqida gapirish o'mana shu haqiqat yotibdi. Ular qonun ustuvorligi, fuqarolarning qonun oldidatengligi, insonparvarlik, adolatlilik va aybsizlik prezumpsiyasi kabi prinsiplarga asoslangan. Bu yo'nalishdagi ustuvor masalalar yuzasidan 40dan ortiq qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi.

Ma'lumki, mustaqil va xolis sudni talab qilish har bir insonning huquqi hisoblanadi. Bu huquq Inson huquqlari Umumjahon deklarasiyasining 10-moddasi va O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan boshqa xalqaro huquq hujjatlarida belgilab qo'yilgan.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida fuqarolarning odil sudlovga erishish darajasini oshirish, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish, sud-huquq sohasidagi islohotlarning ustivor yo'nalishlari etib belgilangan.

Davlatimizda sud-huquq sohasida o'tkazilgan islohotlar natijasida fuqarolarning sud orqali himoyalani kafolatlari yanada kuchaytirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Sud qarorlarini qayta ko'rish instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonunidan ham bilib olishimiz mumkin.



O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasiga asosan: “Har kim o‘z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli.

Har kimga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi. Har kim O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo‘lingan bo‘lsa, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etishga haqli.

Har kim davlat organlarining yoxud ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararining o‘rni davlat tomonidan qoplanishi huquqiga ega”. Ushbu Bosh qomusimizda ko‘rsatilgan qoidalarga muvofiq boshqa normativ hujjatlarda ham inson huquq va erkinliklarini himoya qilish asoslari o‘rin olgan.

Xususan, sudda fuqarolik ishlarining asosiy qismi da’vo ishlarini yuritish tartibida ko‘riladi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Protsessual Kodeksining 182-moddasida: “Sud tomonidan da’vo ishini yuritish tartibida ko‘riladigan ishlarga agar qonun hujjatlarida ularni ko‘rishning boshqacha tartibi nazarda tutilmagan bo‘lsa, fuqarolik, mehnat, oilaviy, uy-joy va boshqa huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan da’volar bo‘yicha ishlar kiradi”, deb ko‘rsatib o‘tilgan.

Da’vo deganda fuqarolar va tashkilotlarning o‘zining buzilgan huquqlarini himoya qilish maqsadida sud yoki boshqa organga murojaat qilishi tushiniladi.

Da’vo mavzusida tadqiqot ishlarini olib borgan protsessualist olim E.Egamberdiyev da’voga batafsil ta’rif bergan. Uning fikricha, da’vo – bu buzilgan huquqni yokui qonuniy manfaatni himoya qilishdan bevosita manfaatdor bo‘lgan shaxsning o‘z huquqini yoki qonuniy manfaatdor bo‘lgan shaxsning o‘z huquqini yoki qonuniy manfaatini himoya qilish maqsadida fuqarolik ishini ko‘rib hal qilish to‘g‘risidagi moddiy huquqiy talab bilan sudga qilgan murojaati, sudda fuqarolik ishini qo‘zg‘atish asosiva buzilgan huquqni hamda qonuniy manfaatni himoya qilishning asosiy protsessual vositasi hisoblanadi.

Da’voning elementi bo‘lib, da’vo predmeti va da’voning asosi hisoblanadi. Bu ikki element da’voning mazmunini tashkil etadi. Da’voning predmeti da’voning talabi, ya’ni uni javobgardan sud orqali talab qilinayotgan narsasi bo‘ladi. Masalan, muayyat summani undirish, biron-bir mulkni topshirish, yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktni belgilash, aliment undirish, yoki shaxsiy huquqqa asoslangan talab bo‘lishi mumkin.

Da’voning asosi deb da’vo talabini asoslaydigan, tasdiqlaydigan dalillarga aytiladi.



Fuqarolik protsessual huquqi nazariyasida da'voning predmeti bo'yicha uning protsessual xususiyatlariga qarab turlarga bo'lish tan olingan umumiy qoida hisoblanadi. Bunga ko'ra da'vogar o'z protsessual xususiyatiga qarab undirish va tan olish to'g'risidagi da'volarga bo'linadi.

Undirish to'g'risidagi da'voda sudga murojaat qilgan da'vogar, birinchidan, nizoli huquqni, uning foydasiga hal qilib berishni so'rasa, ikkinchidan, huquqni tiklashni yoki yo'l qo'yilgan qonun buzilishini bartaraf qilish uchun javobgarni ma'lum harakatlarni qilishga majbur etishni so'raydi. Boshqacha qilib aytganda, undirish haqidagi da'vo, da'vogar o'ziga ma'lum sub'ektiv huquqni tan olinishini, javobgarni bu tan olingan huquqqa muvofiq ma'lum harakatlarni amalga oshirishni – pul mablag'lari, mulkni berish, yer maydoni, yashash joyini ozod etish harakatlarini amalga oshirishni talab qilishi bilan tavsiflanadi.

Tan olish haqidagi da'volarda esa, da'vogar suddan nizoli huquqiy munosabatning mavjudligini yoki yo'qligini tasdiqlashni yoxud nizoli huquqning o'ziga tegishli ekanligini tan olishni so'raydi.

Tan olish haqidagi da'volar ikki turga – ijobiy va salbiy turlarga bo'linadi. Tan olish haqidagi ijobiy da'vo da'vogar o'ziga ma'lum bo'lgan huquqni tan olish haqidagi talabni, masalan yashash joyiga mulk huquqini tan olish haqidagi talabni asoslab berishdan iboratdir.

Shunday qilib, da'vo tartibida ko'riladigan ishlar –sud ishlarini ko'rib chiqishning umumiy qoidalarini o'rnatuvchi fuqarolik sud ishini yuritishning asosiy turi hisoblanadi. Da'vo tartibidagi ishlarda sudga da'vo taqdim etish, sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilish shaxslarning sud himoyasiga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqining tarkibiy elementi hisoblandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 01.05.2023
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Protsessual Kodeksi
- 3.M.M. Mamasiddiqov, Z.N. Esanova, D.Y.Xabibullaev. Fuqarolik protsessual huquqi. Yuridik texnikum o'quvchilari uchun darslik. – T.: TDYU, 2021. – 248b
- 4.Fuqarolik protsessual huquqi (savollar va javoblar) [Matn]: o'quv qo'llanma / Xabibullaev Davlatjon Yulchiboyevich. – T.: TDYU nashriyoti, 2023. – 336 b
- 5.Egamberdiyev E. Fuqarolik jaroyani huquqida da'vo muammolari. – T, Adolat, 1994. – 8 bet